

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

TUXTASINOVA MAHLIYOXON SHAVKATJON QIZI

**L.Z.BUDAGOVNING “СРАВНИТЕЛЬНЫЙ СЛОВАРЬ ТУРЕЦКО-
ТАТАРСКИХ НАРЕЧИЙ” LUG‘ATIDA ESKI O‘ZBEKCHA
QATLAMNING IZOHLANISH PRINSIPLARI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Tuxtasinova Mahliyoхon Shavkatjon qizi

L.Z.Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий”
lug‘atida eski o‘zbekcha qatlamning izohlanish prinsiplari 3

Tukhtasinova Makhliyokhon Shavkatjon kizi

Interpretation principles of the old Uzbek language in the dictionary “Sravnitelnyy
slovar turetsko-tatarskikh narechiy” by L. Z. Budagov..... 25

Тухтасинова Махлиёхон Шавкатжон кизи

Принципы интерпретации староузбекского языка в словаре «Сравнительный
словарь турецко-татарских наречий» Л. З. Будагова..... 48

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 53

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

TUXTASINOVA MAHLIYOXON SHAVKATJON QIZI

**L.Z.BUDAGOVNING “СРАВНИТЕЛЬНЫЙ СЛОВАРЬ ТУРЕЦКО-
ТАТАРСКИХ НАРЕЧИЙ” LUG‘ATIDA ESKI O‘ZBEKCHA
QATLAMNING IZOHLANISH PRINSIPLARI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fil2028 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Dadabayev Hamidulla Aripovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

O‘razboev Abdulla Durdiboevich
filologiya fanlari doktori, professor v.b.

Nishonboy Xusanov Abdusattarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil “___” ___ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz.

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuul.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil “___” _____ dagi raqamli reestr bayonnomasi).

B.B.Abdushukurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U.Pardaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent

S.E.Normamatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ilm-fanida tilshunoslik va lugʻatshunoslik sohalarining jadal rivojlanishi tadqiqotchilar uchun lugʻatlar, ularning tub mohiyati, lingvistik hamda ijtimoiy vazifalari, lugʻat tuzish usullarini asoslashni taqozo etmoqda. Lugʻatshunoslarning ogʻir mehnati va saʼyi harakati natijasida yaratilgan boy ilmiy merosni tadqiq etish bugungi kunning muhim vazifalaridan sanaladi.

Dunyo tilshunosligida leksikografiya masalalari, lugʻat tuzish anʼanalari, til oʻrganishning oʻziga xos qulay va samarali, sinovdan oʻtgan usullarini hayotga joriy etish hamda ulardan keng foydalanish, til oʻrganuvchilar uchun qulayliklar yaratish kabi masalalar tilshunoslar eʼtibori markazida qolmoqda. Jumladan, lugʻatshunoslikda turfa lugʻatlar tuzish, ularni tadqiq etish, tarixda yaratilgan lugʻatlarning qurilishi va mohiyatini oʻrganish, ularning qiyosiy tahliliga bagʻishlangan qator tadqiqotlar mavjud. Noyob qoʻlyozma manba sifatida saqlanayotgan tarixiy lugʻatlarning yaratilish tamoyillarini atroflicha oʻrganish muhim muammo sifatida hanuz oʻz ahamiyatini yoʻqotgan emas. Binobarin, tilning tarixiy taraqqiyotini oʻrganishda uni zamonaviy qarashlar bilan uzviy bogʻlagan holda qiyoslash muhim masalalardan hisoblanmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ajdodlarimiz ilmiy merosini oʻrganish uchun keng qamrovli imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilib, mazkur masalaga bagʻishlangan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayni paytda betakror ilmiy merosning hali toʻliq oʻrganilmagan qirralarini ochib berish, xususan, Respublika hamda chet el fondlarida saqlanayotgan noyob manbalarni tadqiq etish ustuvor yoʻnalishlardan biri tarzida belgilandi. Hozirgi kunda "...Oʻzbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qoʻlyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali toʻliq oʻrganilmagan, ular olimlar va oʻz oʻquvchilarini kutib turibdi. Ushbu noyob asarlarda bugungi davr oʻrtaga qoʻyayotgan juda koʻp dolzarb muammolarga javob topish mumkin... Lekin biz ana shunday noyob meros vorislari, shunday boʻylik egalari boʻla turib, ularni har tomonlama oʻqish-oʻrganish, xalqimiz, avvalo, unib-oʻsib kelayotgan yoshlarimizga, jahon hamjamiyatiga yetkazish boʻyicha yetarli ish qilmaganimizni ham ochiq tan olish kerak"¹. Bugungi kunda Oʻzbekistonda saqlanayotgan qoʻlyozmalarning elektron bazasini yaratish va yuritish, ularni tizim asosida chuqur oʻrganishni tashkil qilish va nazariy jihatdan tavsiflash, yozma yodgorliklarning ilmiy izohlarini oʻzbek va xorijiy tillarda ommaviy axborot vositalari hamda internet sahifalarida nashr qilish, yetakchi mahalliy va xorijiy olimlar ijod mahsullari bilan oʻquvchi yoshlarni tanishtirish va oʻrganish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan. Shu oʻrinda, 1869-1871-yillarda Lazar Zaharovich Budagov tomonidan nashr etilgan "Сравнительный словарь турецко-татарских наречий" ("Turk-tatar tillarining qiyosiy lugʻati") oʻziga xos mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Lugʻatda koʻpgina turkiy tillar qatori, eski oʻzbek (chigʻatoy) adabiy tilida bitilgan manbalarda qayd etilgan koʻpdan koʻp soʻz va istilohlarning izohi oʻz aksini topgan.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати ва Қонунчилик палатасига Мурожаатномаси. Халқ сўзи. – Т., 2017 йил 23 декабрь, № 258.

Shu kunga qadar turkiyshunoslikda ushbu lug‘atning tuzilish prinsiplari unda aks etgan so‘z va istilohlarning izohlanish yo‘llari, lug‘atning keyingi davr lug‘atshunosligiga ta‘siri masalalari maxsus tadqiq etilgan emas. Yuqorida qayd etilgan jihatlarni atroflicha o‘rganish mazkur dissertatsiya yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risidagi” Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimgi yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Sharq, xususan, o‘zbek lug‘atshunosligi taraqqiyoti, o‘zbek tiliga oid lug‘atlarni tuzish tamoyillari bo‘yicha V.Axvledian, A.Kononov, V.Ribalkin, V.Bartold, A.Borovkov, P.Zayanchkovskiy, A.Xolidov, S.Ivanov, V.Velyaminov-Zernov, V.Kapranova, Ahmad Otash, A.Avanesov, P.K.Jyze kabi xorijlik olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan².

² Axvledian V.G. Арабское языкознание средних веков. История лингвистических учений. Средневековой Восток. – М.: Наука, 1981; Кононов А. Махмуд Кашгарский и его “Дивану лугат ит-турк” // Советская тюркология. – Баку, № 1, 1972. – С. 3-19; Рыбалкин В.С. Принципы построения арабских лексикографических трудов VIII-XVIII вв. Дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1984. – 230 с; Бартольд В. Тюрки. – Алматы: Жалын, 1998; ; Боровков А. Тюркские глоссы в бухарском списке “Мукаддимат ал - адаб” // Acta orientalia. – Будапешт: 1962, Т. 15. – Р., 31-39; Он же Лексикографическая традиция в словарях чагатайского языка. – Лексикографический сборник. Вып.IV. – М., 1960; Он же “Бадаий ал-лугат” – словарь Тали Имани Гератского к сочинениям Алишера Навои. – М., 1961; Он же Тюркские глоссы в Бухарском списке “Мукаддиматул-адаб”. – М., 1971; Заянчковский П. Глава о животных в арабском труде Замахшари (С персидскими и тюркскими глоссами) по Стамбульскому списку 655 г. (1257) // Вестник Востока. 1967. – С. 27-82; Халидов А.Б. Словари Исхака ал-Фараби и Махмуда Кашгари // Письменные памятники и проблемы истории культуры народов Востока. Ч.IV. – М., 1987; Иванов С.Н. Родословное дерево тюрк Абу-л-Гази-хана. – Т., 1969. – С. 203; Вельяминов-Зернов В.В. Словарь джагатайско-турецкий. 1869. – С. 453; Капранова В.А. Таджикско-персидская лексикография в Индии XVI- XIX вв. – Душанбе: Дониш, 1987; Ates A. Anadolu kutuphanelerinden bazı muhim Turkce el yazmalari // Turk Dili va Adabiyati. – Istanbul. 1958, № 8. – S. 90-93. Аванесов А.Х. Бахман-Мирза и его сочинение “Шукрнамейи Шахиншахи”: Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. – Т., 1972; Жйзе П. К. Диван лугат ат-турк // Известия Восточного факультета Азербайджанского Государственного университета. – Баку, 1926.

O‘zbek tilshunosligida ham adabiy, badiiy va ilmiy meros, xususan, tarixiy lug‘atlar yuzasidan E.Fozilov, E.Umarov, Q.Muhiddinov, Q.Mahmudov, A.Yunusov, X.Fattohov, A.Ibragimova, M.Ziyayeva, S.Akobirov, N.Husanov, E.Begmatov, T.Qodirov, B.Hasanov, N.Shorahmedova, H.Dadaboyev, Z.Islomov, M.Hakimjonov, F.Ishoqov, A.Ubaydullayev, A.Madvaliyev, Sh.Mirziyatovlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar yaratilgan, maqolalar chop etilgan³.

Shunga qaramay, lug‘atshunoslik sohasida tadqiqotchilar qo‘l urmagan, hali tekshirish obyekti bo‘lmagan manbalar ham borki, ularni tadqiq etish bugungi tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Xususan, shu kunga qadar xorijda A. Kononov, G.Blagova, A.Memetov, N.Dmitriyevlar⁴ maqolalarini e‘tiborga olmaganda, L.Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” asarining leksikografik tahlili hamda uning turkologiya va o‘zbek lug‘atshunosligidagi o‘rni masalasi monografik planda tadqiq etilmagan.

³ Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т. I-II. – Т.: Фан, 1966, 1971; Умаров Э.А. Грамматика староузбекского языка “Мабани ул-лугат” Мирзы Мехдихана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1967; Он же “Бадаи ал-лугат” и “Санглах” как лексикографические памятники и источники изучения староузбекского языка XV- XVIII вв.: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Т., 1989; Мухитдинов К. “Санглах” Мирзы Мухаммеда Мехдихана. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1971; Махмудов Қ, Ахмад Югнакийнинг “Хибатул ҳақойик, асари ҳақида (кириш, транскрипция, шарҳ, луғат). – Т., 1972; Юнусов А. Исследование памятника XIV в. “Таржуман турки ва ажами ва муғали”. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 1973; Фаттахов Х.Х. Мухаммад Риза Хаксар и его “Мунтахаб ал-лугат”. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1974; Ибрагимов А. Исследование “Келурнаме” Мухаммеда Якуба Чинги. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Т., 1976; Зияева М. Исследование памятника XIV в. “Китаб ат тухфа уз-закия фил лугат-ит туркийя”: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Т., 1976; Ақобиров С. Луғат – сўз хазинаси. – Т.: Фан, 1977; Хусанов Н. Лексикографическая характеристика словаря Шейха Сулеймана Бухари “Лугати чагатайи ва турки усмани”. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Т., 1982; Э.А. Бегматов. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик катламлари. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, Toshkent, 1985; Қодиров Т.Ш. Мирзо Муҳаммад Ҳойининг “Хулосайи Аббосий” асарининг филологик тадқиқи. Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Т., 1988; Хасанов Б.Р. Принципы составления рукописных словарей к произведениям Навои. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Т., 1989; Шарахмедова Н. “Хамса ба ҳалли луғат” как источник узбекской исторической лексикографии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1990; Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т.: Ёзувчи.1991; Он же Астрономическая наименования в старотюркских письменных памятниках XI-XIV вв. Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Т.: Фан, 1994; Шу муаллиф Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Т., 2008; Дадабоев Ҳ. ва бошқалар. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Т.: Фан, 2007; Исломов З.М. Махмуд Замахшарийнинг “Муқаддимату-л-адаб” асаридаги туркий феъллар таҳлили. Филол. фан. номз. ...дисс. – Т., 1993; Шу муаллиф Махмуд Замахшарийнинг “Муқаддимату-л-адаб” асарининг кўлөзма манбалари ва арабча-туркий феъллар сўзлигининг йиғма илмий-танқидий матни (Тошкент кўлөзмалари асосида): Филол. фан. док. ... дисс. – Т., 1998; Ҳакимжонов М.Ю. Махмуд Замахшарийнинг “Муқаддимату-л-адаб” асаридаги арабча-туркийча сўзликнинг лексикографик таҳлили (Исмлар). Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1994; Исҳоқов Ф. Гулҳаний “Зарбулмасал”ининг илмий-танқидий матни. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Т., 1997; Убайдуллаев А.А. “Луғати туркий”нинг лексикографик тадқиқи. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2011; Мадвалиев А. Ўзбек лексикографияси тарихидан (кўлөзма луғатлар) // Ўзбек тили ва адабиёти. №2. – Б. 37-41; Шу муаллиф Ўзбек лексикографияси тарихидан (босма луғатлар) // Ўзбек тили ва адабиёти. №3. – Б. 31-36; Шу муаллиф Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017; Мирзиётов Ш. “Муқаддимату-л-адаб” асарида тилшунослик, луғатшунослик аънаналари ва арабий-туркий сўзликнинг лексик-семантик талқини: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) дисс. автореф. – Т., 2017.

⁴ Кононов А. Н. История изучения тюркских языков в России: Дооктябрьский период. – Л., 1982. – С.336; Благова Г.Ф. Л.З.Будагов, Н.И.Ильминский и вопросы несистемной преемственности в тюркологии // Урал-алтайские исследования. – М., № 2 (7) 2012. – С. 101-109; Меметов А. Вклад Л. Будагова в крымское востоковедение. Развитие востоковедения в Крыму (XI - начало XX века). – Симферополь : ИТ “Ариал”, 2019. С. 180; Дмитриев Н. К. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий Л. Будагова / Публ., комм. и примеч. Благовой Г. Ф. Н. К. Дмитриев: К 100-летию. – М., 2001. – С. 132.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi L.Budagov tomonidan tuzilgan "Turk-tatar tillarining qiyosiy lug'ati"ning o'zbek lug'atshunosligi tarixi va takomilidagi o'rnini yoritish, lug'at tuzilishi va unda aks etgan eski o'zbek (chig'atoy)cha so'zlarni statistik, leksik-semantik va mavzuiy guruhlar nuqtayi nazardan tadqiq etish, lug'atdagi eski o'zbekcha so'zlarning izohlanish prinsiplarini aniqlash hamda lug'atda izohlangan eski o'zbekcha (chig'atoycha) so'zlarning qarindosh turkiy tillarda voqelanishini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

L.Budagov hayoti va ilmiy faoliyatini o'rganish, uning qalamiga mansub "Turk-tatar tillarining qiyosiy lug'ati" tadqiqi asosida manbalarning o'zbek lug'atshunosligi taraqqiyotidagi o'rnini belgilash;

o'zbek lug'atshunosligi tarixida yaratilgan mumtoz lug'atlarga qiyoslash orqali L.Budagov lug'atining o'ziga xos leksikografik xususiyatlarini ochib berish, mavzuiy guruhlar bo'yicha tasnifi va statistik tahlilini amalga oshirish;

"Turk-tatar tillarining qiyosiy lug'ati" o'zbek tilshunosligi, lug'atshunosligi, manbashunosligi taraqqiyoti, ayniqsa, eski o'zbek adabiy tili manbalarida qo'llangan leksik birliklar ma'nosini izohlashda muhim ilmiy ahamiyatga molik ekanligini aniqlash;

"Turk-tatar tillarining qiyosiy lug'ati" yaratilgan boshqa lug'atlardan farqli o'laroq ko'p tilliligi, so'z ma'nolarining ensiklopedik izohlanishida muayyan qardosh turkiy tilda yozilgan badiiy ijod namunalaridan ashyoviy materiallar keltirishi, muqobilalar va sinonimlar yordamida izohlanishini asoslash;

lug'atdagi eski o'zbek (chig'atoy)cha so'zlarning qo'llanishi, ular tarkibida yuz bergan fonetik o'zgarishlar, o'zbek tili lug'at boyligining tarixiy taraqqiyotini asoslash, shuningdek, lug'at matnining eski o'zbek va lotin yozuvidagi elektron variantlarini tayyorlash hamda eski o'zbekcha so'zlarning transkripsiyasini yaratish.

Tadqiqotning obyektini Lazar Zaharovich Budagovning "Сравнительный словарь турецко-татарских наречий" asari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmeti L.Z.Budagovning "Сравнительный словарь турецко-татарских наречий" asarini leksikografik, tarixiy-etimologik, leksik-semantik va statistik aspektlarda tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, tasniflash, retrospektiv, analiz, sintez, leksikografik, shuningdek, o'zni bilan lingvostatistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Turk-tatar tillarining qiyosiy lug'ati" yuzasidan olib borilgan izlanishlar asosida manbalarning o'zbek lug'atshunosligi taraqqiyotidagi o'zni aniqlanib, o'zbek tilshunosligi, lug'atshunosligi, manbashunosligi taraqqiyoti, ayniqsa, eski

o‘zbek adabiy tili manbalarida qo‘llangan leksik birliklar ma’nosini izohlashda muhim ilmiy ahamiyatga molik ekanligi aniqlangan;

o‘zbek lug‘atshunosligi tarixida yaratilgan mumtoz lug‘atlarga qiyoslash orqali L.Budagov lug‘atining o‘ziga xos leksikografik xususiyatlari ochib berilgan, mavzuiy guruhlari aniqlangan va statistik tahlili amalga oshirilgan;

“Turk-tatar tillarining qiyosiy lug‘ati” yaratilgan boshqa lug‘atlardan farqli o‘laroq ko‘p tilliligi, so‘z ma’nolarining ensiklopedik izohlanishida muayyan qardosh turkiy tilda yozilgan badiiy ijod namunalaridan ashyoviy materiallar keltirishi, muqobillar va sinonimlar yordamida izohlanishi asoslangan;

lug‘atdagi eski o‘zbek (chig‘atoy)cha so‘zlarning qo‘llanishi, ular tarkibida yuz bergan fonetik o‘zgarishlar, o‘zbek tili lug‘at boyligining tarixiy taraqqiyoti asoslangan, lug‘at matnining eski o‘zbek va lotin yozuvidagi elektron variantlari tayyorlangan hamda eski o‘zbekcha so‘zlarning transkripsiyasi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilar bilan belgilanadi:

lug‘atdagi eski o‘zbek (chig‘atoy)cha so‘zlar matnining elektron shakli yaratildi;

lug‘atdagi eski o‘zbek (chig‘atoy)cha so‘zlar matni transkripsiya qilindi;

tadqiqot qardosh xalqlar tillari, adabiyoti, madaniyati aro mushtarak hamda o‘ziga xos jihatlarni ilmiy dalillar orqali ochishga, tilshunoslik sohasidagi keng qamrovli izlanishlarga asos bo‘ladi;

tadqiqot materiallarining turkiy tillar, chunonchi, o‘zbek tili tarixi, leksikologiyasi va leksikografiyasi, shuningdek, etimologiyasi masalalariga oid nazariy qarashlarni ma’lum darajada to‘ldirishi asoslangan;

lug‘atda izohlangan eski o‘zbekcha so‘zlar XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o‘z qatlamning boyligi, ma’no doirasining kengligini belgilashda qimmatli material vazifasini o‘taydi. Dissertatsiya materiallari turkiyshunos, xususan, lug‘atchilar uchun muhim ilmiy manba rolini o‘ynashi, undagi izohlardan til tarixiga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalarni mukammallashtirishda foydalanish tavsiya etiladi;

dissertatsiya materiallarining ideografik, tarjima, etimologik va korpus lug‘atlar tuzish, avtomatik tarjima muammolarini hal qilishda nazariy manbalardan biri bo‘lishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llangan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, tilshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilganligi, shuningdek, tahlilga tortilgan til materiallari o‘zbek tilining lingvistik tabiatidan kelib chiqqan holda, xulosalar qilish imkonini berishi, ashyoviy til materiallarining eski o‘zbek tili lug‘atlari, “Древнетюркский словарь”, “Этимологический словарь тюркских языков”, “Опыт словаря тюркских наречий”, “Словарь джагатайско-турской” (“Abushqa”), “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”, “O‘zbek

tilining izohli lug‘ati” va ayrim turkiy tillarga oid leksikografik manbalarga qiyoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek lug‘atshunosligining tarixiy taraqqiyoti, o‘zbek tili lug‘atlarini tuzish tamoyillarining nazariy asoslariga aniqlik kiritishi, tadqiqot tilshunoslik, lug‘atshunoslik, matnshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, manbashunoslik yo‘nalishlarida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi, lug‘at so‘zligining matniy tadqiqi turkiy (o‘zbek) tillarning taraqqiyot jarayonini yoritishga xizmat qilishi, “Turk-tatar tillarining qiyosiy lug‘ati”ning shu kunga qadar monografik jihatidan xorijlik, mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilmagan manba sifatida o‘rganilishi XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi lug‘atshunoslik haqidagi ilmiy fikrlarga oydinlik kiritishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbek tilshunosligi tarixi, Adabiy til tarixi, Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Turkiy filologiyaga kirish, Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi, Matnshunoslik, Manbashunoslik kabi fanlarni o‘qitishda, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, darslik va qo‘llanmalar, ideografik, tarjima va etimologik lug‘atlar tuzishda foydalanish va lug‘at tarkibidagi eski o‘zbekcha so‘zlikdan o‘zbek tilining izohli va etimologik lug‘atlarini to‘ldirish hamda mukammallashtirishda keng foydalanish mumkin ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. L.Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug‘atida eski o‘zbekcha qatlamning izohlanish prinsiplari tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

lug‘atshunoslik an‘analari, lug‘at maqolati, so‘zlikning berilish usullari, tarixiy manbalar leksikasi, etimologiyasi kabi o‘zbek leksikografiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2019-2022-yillarda bajarilgan A-OT-2019-10 raqamli “O‘zbek tilida neyming: me‘yoriy-huquqiy asoslarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 9-sentabrdagi 01/10-1899-son ma‘lumotnomasi). Natijada O‘zbek tilida neyming: me‘yoriy-huquqiy asoslari o‘zbek leksikografiyasiga oid terminlar bilan boyitilgan, keltirilgan izohlar mukammallashtirish;

lug‘atshunoslikka oid lug‘at strukturasi, so‘zlik, ekvivalentlik, leksika, tarjima lug‘atlar singari tushunchalarga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan F3-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 9-sentabrdagi 01/10-1900-son ma‘lumotnomasi). Natijada elektron platformada qo‘llanilgan atamalar izohining ilmiyligi hamda mukammalligiga erishilgan;

tadqiqotda mavjud ilmiy-nazariy qarashlar, lug‘atshunoslik, turkiy tillar rivojlanishida eski o‘zbek tilining o‘rni, turkologiyada lug‘atnavislikning rivoji, qadimiy qo‘lyozma asarlarni o‘qish, o‘rganishda tarixiy lug‘atlarning ahamiyatiga

oid ilmiy-tarixiy ma'lumotlardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Uchinchi Renessans" ko'rsatuvida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2023-yil 13-sentabrdagi 06-28-1387-son ma'lumotnomasi). Natijada L.Budagov lug'atining mazmun-mohiyatini ochib berish hamda ommaga yetkazishga xizmat qilgan, ko'rsatuv uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammalashgan, ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 159 sahifani tashkil etadi. Ishga eski o'zbekcha so'zlar lug'ati ilova qilindi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**L.Z.Budagov va uning "Turk-tatar tillarining qiyosiy lug'ati"**" deb nomlangan I bobida lug'at muallifi haqida ma'lumot, lug'at uchun asos bo'lgan manbalar va lug'atning turkologiyadagi o'rni kabi masalalar yoritilgan. O'zbek tili tarixiy leksikasi, jumladan, lug'atshunosligini o'rganishda bir qator turkolog-lug'atshunoslarning xizmatlari salmoqli. Jumladan, L.Z.Budagov, V.V.Radlov, S.I.Baevskiy, A.M.Shcherbak, A.K.Borovkov, A.Rustamov, E.I.Fozilov, A.N.Kononov, Q.Muhitdinov, M.Ziyayeva, X.X.Fattohov, N.A.Xusanov, E.A.Umarov, H.A.Dadaboyev, N.I.Sharahmedova, M.Y.Hakimjonov, Z.M.Islomov, H.Hamidov, Z.T.Xolmonova⁵ va boshqalarning nomini qayd etish mumkin.

⁵ Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Т. I-II. -СПб.: Б.И., 1869-1871; Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. I-V.-Т.1.Ч.1.- СПб. 1893-1898; Баевский С.И. Описание персидских и таджикских рукописей Института народов Азии. Вып. 5. Двухязычные словари. -М.: АН СССР, 1962; Щербак А.М. Словарь Фазуллахана.- М-Л.: Наука. Ленинград, отд., 1962; Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тевсира XII- XIII вв. -М.: Восточ. лит., 1963; Рустамов А. Фонетико-морфологические особенности языка Алишера Навои: Автореф. дисс. ...д-ра филол. наук. Ташкент, 1966; Фазылов Э.И. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. I-II.-Т.: Фан УзССР, 1966- 1971; Древнетюркский словарь. -Л.: Наука, 1969; Кононов А.Н. Слова о Юсуфе из Баласагуна и его поэме «Кутадгу билиг» // Советская тюркология. 1970.- No 4.- С. 3-12; Мухитдинов Қ. Мирза Мухаммад Махдихоннинг "Санглох" асари: Филол. фанлари номзоди. дисс. -Тошкент, 1971; Зияева М. Исследование памятника XIV в. "Китаб ат тухфа уз-закия фил лугат-ит туркийя": Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Т., 1976; Фаттохов Х.Х. Мухаммад Ризо Хоксор ва

Turkiy lug‘atshunoslik tarixida muhim ahamiyatga ega shaxslardan Lazar Zaharovich Budagov tarjimayi holiga oid juda oz saqlanib qolgan biografik ma’lumotlarni A.N.Kononov, G.F.Blagova, H.Eren, A.M.Memetov, O.L.Sumarkova kabi turkologlarning maqola va ilmiy ishlarida ko‘rish mumkin. G.F.Blagovaning ma’lumotlariga ko‘ra, “Astraxan shahrida 1812-yilning 4-aprelda tug‘ilgan, arman millatiga mansub Lazar Zaharovich Budagov”⁶ Sankt-Peterburg universitetining Sharq tillari fakultetida “tatar (ozarbayjon shevasi) va fors tili hamda arifmetika fanidan dars bergan”⁷.

Turkologiyada sohaning rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘sha olgan L.Z.Budagov faoliyati davomida quyidagi lug‘at va qo‘llanmalarni foydalanuvchilarga taqdim etgan:

“Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” (eng ko‘p qo‘llaniladigan arab va fors tillari bilan to‘ldirilgan va rus tiliga tarjimasi bilan) I jild SPb, 1869, II jild SPb, 1871; fotomexanik usulda qayta nashr, M. 1960. Bundan tashqari, “Энциклопедический словарь”da “u tomonidan “Практическое руководство к турецко-татарскому азербайджанскому наречию” (“Turk-tatar, ozar lahjalariga qisqa qo‘llanma”) (Moskva, 1857) nashr etilgan bo‘lib, bu asar sharq tillarini o‘rganishda Robertson metodini qo‘llashga bo‘lgan ilk urinish ekanligi bilan e’tiborga molik; uning Tbilisida faoliyatiga doir bo‘lgan “Краткий учебник татарского языка” (“Tatar tili qisqa darsligi”) (1844) hamda “Об учении Магомета и причинах быстрого его распространения” (“Muhammad (s.a.v.)ning ta’limoti va uning tez yoyilishi sabablari haqida”) mavzusidagi ma’ruzasi chop etilgan”ligi haqida ma’lumotlar qayd etilgan⁸.

XIX asrning ulkan turkiy lug‘atlaridan biri bo‘lgan ushbu asarni tuzish uchun boy tilga oid va ekstrolingvistik materiallar muallif tomonidan bir qancha manbalardan misqollab yig‘ib chiqilgan. Ushbu ish uchun tarixiy manba bo‘lib, Abul G‘oziyning asarlari, uning tarixi; Boburning N.Ilminskiy tomonidan 1857-yilda Qozonda nashr etilgan chig‘atoy lahjasidagi yozuvlari; “Burhoni qote” yozma fors tili lug‘ati; H.Vamberining 1868-yilda Leybsikda nashr etilgan “Djagataische Sprachstudien”; Alisher Navoiyning g‘azallariga chig‘atoy lahjasi lug‘ati, turk tilidagi tarjima bilan; N.Ilminskiyning qirg‘iz lahjasiga oid materiallari;

uning "Мунтахабу-л-луғот"и (филологик таджикот, транслитерация, изоҳ, факсимиле): Филол. фанлари номзоди. ... дисс. -Тошкент, 1973; Хусанов Н.А. Лексикографическая характеристика словаря Шейха Сулеймана Бухари «Лугати чага тайи ва турки усмани»: Автореф. дис...канд. филол. наук. -Ташкент, 1982; Умаров Э.А. «Бадаи-ал-луғат» и «Санглах» – как лексикографические памятники и источники изучения староузбекского языка XV-XVIII вв.: Автореф. дисс. ...д-ра филол. наук. Ташкент, 1989; Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т.: Ёзувчи.1991; Шарахмедова Н.И. Словарь «Хамса ба ҳалли луғат» как источник узбекской исторической лексикографии: Дисс. ...канд. филол. наук. -Ташкент, 1990; Ҳакимжонов М.Ю. Махмуд Замахшарийнинг "Муқаддиму-л-адаб" асаридagi арабча-туркийча сўзликнинг лексикографик таҳлили (исмлар): Филол. фанлари номзоди дисс. автореф. -Тошкент, 1994; Исломов З.М. Махмуд Замахшарийнинг "Муқаддиму-л-адаб" асарининг қўлёзма манбалари ва арабча-туркий феъллар сўзликнинг йиғма илмий-танқидий матни (Тошкент қўлёзмалари асосида): Филол.фанлари д-ри ... дисс. - Тошкент, 1998; Дадабоев Х., Ҳамидов З. Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. - Тошкент: Фан, 2007;

⁶ Eren H. Türklük bilimi sözlüğü. I. Yabancı türkologlar. –Ankara, 1998. – S.123-124

⁷ Кононов А.Н. Библиографический словарь отечественных тюркологов: дооктябрьский период. – М.: Наука, 1974. –С.130-131.

⁸ Brokgaуз F. A., Efron I. A. Энциклопедический словарь, Том IVA. –SPb, 1891. – С. 836.

Konstantinopolda turk tilidagi izohlari bilan chop etilgan “Qomus lug‘ati”; Kalkuttada 1828-yilda chop etilgan fors tiliga tarjimai bilan chig‘atoy lahjasining “Kalkutta lug‘ati”; Sankt-Peterburgda 1866-yilda chop etilgan V.V.Radlovning nemis tiliga tarjimai bilan “Turk qabilalari milliy adabiyotlaridan namunalar” 1-qism, Oltoy kichik lahjasi; Troyanskiyning “Qozoq lahjasi lug‘ati”; Giganovning Tobol lahjasidagi lug‘at va o‘quv qo‘llanmalari; Konstantinopolda chop etilgan Farhangi-Shuriyning turk tilidagi tarjimai bilan “Fors tili lug‘ati”; Hanjariyning lug‘ati; Sanglah hamda Lahjat ul-lug‘ot; Qozonda 1864-yilda chop etilgan noma’lum muallifning سراج القلوب “Siroj ul-qulub” – asli arab tilidan fors tiliga, fors tilidan chig‘atoy lahjasiga tarjima qilingan Payg‘ambarlar haqida qissa; 1859-yilda Qozonda chop etilgan Raboti O‘g‘uzning qozisi Burhonuddin ibn Nosiruddin tomonidan (hijriy 709-yilda) chig‘atoy lahjasida yozilgan Payg‘ambarlar tarixi; Alisher Navoiyning turkiy va forsiy tillar bahsiga oid “Muhokamat ul-lug‘atayn”; Katrmerning 1841-yili Parijda nashr etilgan “Qadimgi fors shohlarining qisqacha tarixi” (“Tarixi muluku ajam”) kabi asarlar xizmat qilgan. Chunonchi, قصص الانبياء ربيعوزى *Payg‘ambarlar tarixi* haqida ma’lumotlarni o‘zida jamlagan bu asar ham L.Budagov lug‘ati uchun muhim manbalardan biri. Asarning turkiy tilda bitilgan varianti Amerikadagi Armenia universitetida (OCLC Number/unique Identifier 913533073 – Qişaş al-anbiyā’: An Eastern Turkish version) saqlab kelinmoqda. Biz tadqiqotimiz davomida foydalanayotgan قصص الانبياء ربيعوزى ning chig‘atoy tilidagi varianti hozirda Harvard universiteti Widener kutubxonasiida mavjud va asar ID: 990072772530203941 raqami bilan qayd etilgan. Chig‘atoy va qirg‘iz leksikonida mavjud “yashash uchun hech qanday vositasiz qoldirilgan, yordamga muhtoj, yetim” semalariga ega قلاش *qalaš* (II, 61) leksemasi izohida ham ayni manbadan foydalanib izohlanganini ko‘ramiz:

ای عیس او غلوم اولدی او شاق او غلانلاری قالدی قلاش مین تقی قاری خاتون مین سقلامقکه کوچوم
یتماز⁹

Turkologiya uchun L.Z.Budagov lug‘atining muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘plab olimlar tomonidan e’tirof etilgan. A.N.Samoylovich kundalik ilmiy faoliyatida lug‘atdan keng foydalangan va uni “L.Budagovning umumturkiy lug‘ati”¹⁰ deb atagan. G.F.Blagova maqolasida¹¹ L.Budagov lug‘atida XIX asr ikkinchi yarmida mavjud bo‘lgan turkiy tillar va lahjalar, ularning o‘ziga xos leksik-semantik va fonomorfologik xususiyatlari inobatga olingani holda asosiy lug‘aviy fondi taqdim etilgani muallifning katta xizmati ekanligini ta’kidlaydi.

L.Budagov turkiy so‘zlarning tarjimasini berish bilan cheklanib qolmasdan, so‘zlar anglatuvchi tushunchalar va ma’nolarini izohlash hamda ochiqlash orqali ko‘p qirrali sharhni yuzaga chiqardi. Natijada lug‘at turkiy xalqlarning o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy hayoti, turmush tarzi, an’ana va mentalitetiga oid ensiklopediyaga aylangan. N.K.Dmitriyev qayd etganidek, L.Z.Budagov “o‘zining to‘g‘ridan to‘g‘ri

⁹ <https://id.lib.harvard.edu/curiosity/islamic-heritage-project/40-990072772530203941>

¹⁰ Самойлович А. Н. Обзор русских грамматик (XIX в.) различных тюркских языков // Самойлович А. Н. Тюркское языкознание. Филология. Руника / Сост. и отв. ред. Благова Г. Ф., Насилов Д.М. – М., 2005. –С. 211.


¹¹ Благова Г.Ф. Л. З. Будагов, Н. И. Ильминский и вопросы несистемной преемственности в тюркологии. Урало-алтайские исследования. – М.№ 2 (7) 2012. – С. 101-109.

mutaxassisligi chegarasidan tashqariga qaray olganligi”¹² uchun tarixda o‘z nomini qoldira oldi. L.Z.Budagov o‘zini novator sifatida nomoyon qildi: o‘zining lug‘ati yordamida u amalda turk leksikografiyasida kompleks yondashuv – qiyosiy, izohli va ikki tilli tarjima lug‘atlari (bundan tashqari tarixiy lug‘at tuzish asoslari) tamoyillarini birlashtirishga asos soldi.

“Lug‘atning tuzilishi va undan o‘rin olgan eski o‘zbekcha so‘zlarning tematik guruhlari” nomli ikkinchi bobda lug‘atning tuzilishi va fonetik shakllari yoritilgan. Lug‘atda mavjud eski o‘zbekcha so‘zlarning statistik tahlili va mavzu guruhlari bo‘yicha tasniflash amalga oshirilgan.

“Turk-tatar tillarining qiyosiy lug‘ati” XIX asrning eng ulkan turkiy lug‘atlardan biridir. Lug‘atning 810 sahifadan iborat birinchi jildi ilk marta 1869-yilda Sankt-Peterburgda nashr etilgan. Lug‘atning 415 sahifani o‘z ichiga olgan ikkinchi jildi 1871-yilda o‘sha yerda nashr etilgan. “Lug‘atda jami 25200 so‘z mavjud”¹³. Lug‘at tarkibidagi leksik material arab yozuvidagi alifbo tartibida tuzilgan. Birinchi jildda so‘zlar faqat arab yozuvida, transkripsiyasiz berilgan, ikkinchi jildda bir qancha leksik birlikning transkripsiyasi ruscha harflar bilan ko‘rsatilgan. Lug‘at maqolalari arab alifbosi tartibida arab harflari yordamida sahifalanish bilan boshlanadi. I jildga alif (ا) dan fa (ف)gacha, II jildga esa qof (ق) dan yoy (و) harflari bilan boshlanuvchi so‘zlar kiritilgan.

791-810-betlarda “Birinchi jildga qo‘shimcha va tuzatishlar” (Дополнения и исправления къ первому тому) nomi ostida so‘zlar keltirilgan, lekin izohlanmagan bu so‘zlar oltoy lahjasiga taalluqli bo‘lib, V.Radlovning materiallari va Oltoy missiyasi chop ettirgan lug‘atdan olingan. Ushbu lahjadagi fe‘llar buyruq mayli shaklida berilgan¹⁴. Lug‘atning 810-betidan so‘ngra alohida sahifalanish bilan “Qo‘shimcha va tuzatishlar” (Дополнения и исправления) qismida kiritilgan leksemalar oltoy va teleut lahjasiga taalluqli so‘zlar bo‘lib, V.Radlov materiallaridan olingan, uch sahifani tashkil etadi. Umumiy sahifalanishga kiritilmagan tarzda har ikki jild uchun “Xatoliikar” (Опечатки въ обоихъ томахъ) qayd etilgan leksemalar bir sahifani tashkil etgan. “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug‘at tarkibida jami 25200 ta leksema keltirilgan bo‘lib, eski o‘zbek (chig‘atoy) tili so‘z boyligiga oid so‘zlar jami 1917 tani tashkil etmoqda.



Tadqiq jarayonida chig‘atoycha leksemalar quyidagicha turkumlarga ajratildi: ot so‘z turkumiga oid leksemalar miqdori 1232 ta, shundan, 53 tasi atoqli ot, 1179


¹² Дмитриев Н. К. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий Л. Будагова / Публ., комм. и примеч. Благовой Г. Ф. // Н. К. Дмитриев: К 100-летию. – М., 2001. – С. 106.

¹³ Меметов А. Вклад Л. Будагова в крымское востоковедение // Развитие востоковедения в Крыму (XI - начало XX века) // Симферополь : ИТ “АРИАЛ”, 2019. – С. 56.

¹⁴ Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. – СПб; 1869, I том.– С.791

tasi turdosh ot hisoblanadi. 53 ta atoqli otdan 5 tasi antroponim, 2 tasi toponim, 33 tasi urug‘, qabila nomlari, 6 tasi kosmonim, 3 tasi gidronim, 4 tasini diniy-tasavvufiy nomlar tashkil etsa, 1179 ta turdosh otdan 77 tasini shaxs, 60 tasini o‘rin-joy, 945 tasini narsa-buyum (112 ta harbiy istilohlar, 84 ta somatizm, 114 ta maishiy leksika, 57 ta oziq-ovqat, 202 ta zoonim, 51 ta fitonim, 22 tasini gidronim va b.), 34 tasini faoliyat-jarayon, 63 tasini mavhum otlar tashkil etadi.

Mushtarak leksemalar statistikasi:




Tadqiqot jarayonida chig‘atoycha so‘zlarning turkiy xalqlar so‘z boyligida tutgan o‘rniga diqqat qaratilganda, chig‘atoy tilida faol bo‘lgan so‘z bir vaqtda o‘zga xalq tilida ham qo‘llanilishi, bu o‘rinda chig‘atoy tili birinchi planda bo‘lgan vaziyatda 1917 ta chig‘atoycha so‘zning 382 tasi yuqoridagi fikrning dalili sifatida namoyon bo‘ldi. Lug‘atda дж.тат. belgisi bilan ifodalanuvchi chig‘atoy/tatar tiliga oid leksik birlik 230 ta. дж.каз. – chig‘atoy/qozon leksikonida 56 ta, дж.тоб. – chig‘atoy/tobol so‘z boyligida 7 ta, дж.кир. – chig‘atoy/ qirg‘iz leksikonida 29 ta, дж.п. – chig‘atoy/fors tilida 3 ta, дж.тур. chig‘atoy/turk (umumturkiy) so‘z boyligida 16 ta, дж.ад. – chig‘atoy/ozarbayjon so‘z boyligida 19 ta, дж.уйг. – chig‘atoy/uyg‘ur leksik boyligida 7 ta leksema uchraydi. Ma’lumotlardan ayon bo‘ladiki, mushtarak leksemalar chig‘atoy hamda tatar tillarida 60 % ni tashkil etgan holda eng ko‘p miqdorda ekanligi ikki xalqning ijtimoiy aloqalari yaqin bo‘lganidan dalolat beradi. Fikrimiz dalili sifatida quyidagi misolni ko‘rib o‘tamiz. (جَبَاغَا - *jabaya* (I, 431) “qo‘ylardan olinadigan yung”, bahorda olinuvchi bu yung dag‘al bo‘lib, adyol va chakmonlarning ichiga solish uchun ishlatiladi. اَرْخَار , اَرْخَار - *arxar, arqar* (I, 30) bu zoonim bir vaqtning o‘zida ham chig‘atoy, ham qirg‘iz tillariga oid so‘z bo‘lib, “tog‘ qo‘yi, yovvoyi hayvon, cho‘l qo‘yi, notekis katta shoxga ega bo‘lgan hayvon” ma’nosini anglatadi. L.Budagov “Boburnoma”dan misol keltiradi: قزىل كىيىك كىم ارقار غه جه بولغاي – *Qizil kiyikkim arqaryaja bolayay*. Arxarning kattaligi qizil kiyikka o‘xshash bo‘lishi aytilgan. Ushbu zoonim “Boburnoma”ning to‘qqiz yuz to‘qqizinchi yil (1503-1504) voqealari bayonida, Kobul viloyati ta’rifida, shunday keltirilgan: *Küz va yáz fasllarida qizil kiyikkim, arqaryalça bolayay, qışlaqqa, yayloqya ötärdä muayyan tutqovullari bordur*¹⁵. “Arxar” leksemasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “juft tuyoqlilar turkumiga mansub yovvoyi

¹⁵ Захириддин Муҳаммад Бобир. Бобирнома.–Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси, 1960, –Б. 201.

qo‘ylarning umumiy nomi; olqor, tog‘ qo‘yi” tarzida izohlangan¹⁶. Demak, bu so‘z o‘z ma’nosini hozirgi kunda ham ayni holatda saqlanib qolingani ko‘rsatadi.


Yuqorida birinchi navbatda chig‘atoy tiliga oid leksemalarning miqdoriy tahlilini ko‘rdik. L.Budagov lug‘atida chig‘atoy tiliga xos leksemalarning umumiy miqdori 1917 ta ekanligini qayd etgan holda, chig‘atoycha leksemalar ikkinchi planda (chig‘atoy leksikonida ham mavjud bo‘lgan leksemalar) bo‘lgan holatda 51 ta leksema mavjudligi aniqlandi. Lug‘atda тур.дж. belgisi bilan qayd etilgan turk/chig‘atoy tiliga oid leksemalar 34 ta, тат.дж. – tatar/chig‘atoycha 1 ta, п.дж. – forsha/chig‘atoycha 10 ta, ад.дж. – ozarbayjoncha/chig‘atoycha 2 ta, уйғ.дж. – uyg‘urcha/chig‘atoycha 2 ta, қаз.дж. – qozoncha/chig‘atoycha 2 ta leksema mavjud. Qardosh turkiy tillar bilan bir o‘rinda keluvchi (chig‘atoycha leksema ikkinchi planda) turk/chig‘atoycha leksemalar 67% (34 ta)ni tashkil etib eng yuqori ko‘rsatkichni egallagan.

Tubandagi diagrammada chig‘atoy tili ikkinchi planda qayd etilgan leksemalarning statistik tahlili qayd etilgan:



Demak, L.Budagov lug‘atida qayd etilgan 1917 ta so‘zdan дж. belgisi bilan 1484 ta (77,4 %), qardosh tillarda ham qo‘llanuvchi 433 ta leksema (22,6%)ni tashkil etmoqda. Mushtarak qo‘llanuvchi 433 ta leksemadan chig‘atoycha belgisi birinchi planda qayd etilgan 382 ta leksema (88,2%), ikkinchi planda 51 ta leksema (11,8%)ni tashkil etmoqda.

L.Budagov lug‘atida chig‘atoy tiliga oid leksemalarning statistik tahlili



Yuqorida chig‘atoy tili leksemalarining lug‘at-maqola tarkibida bosh so‘z leksema bo‘lgani holda statistik tahlili yoritildi. Lug‘atda shunday o‘rinlar ham mavjudki, o‘zga til leksemalari lug‘at-maqolasi tarkibida ham chig‘atoy tilidagi izohlar 835 o‘rinda qayd etilgan.

¹⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Madvaliyev A. tahriri ostida. O‘zbekiston nashriyoti T.: 2020, V jild. –B.101.

Lug‘atshunoslikda sharqda so‘zning fonetik xususiyatlariga katta e‘tibor berilgan. Bu haqda E.A.Umarovning asarida to‘liq ma‘lumot keltirilgan¹⁷. Tadqiqot jarayonida lug‘atda qayd etilgan leksemalar tarkibida 1917 ta chig‘atoycha leksemalardan 584 birlikning fonetik shakl (variant)lari ham qayd etilgani ma‘lum bo‘ldi. Muallif fikricha, qo‘lyozma manbalarni o‘quvchi kitobxonda paydo bo‘luvchi ikkilanish yoki chalg‘ishlarning oldini olish maqsadida ayrim leksemalarning yozuvda hamda talaffuzdagi shakllari ham keltirilgan.

Leksemalarda fonetik variantlarning yuzaga chiqishi ba‘zan harf va belgi o‘rtasida kechadi. “O‘git, maslahat” ma‘nosidagi اوگوت , اوگوت * *ögüt* (I, 148) leksemasida ü tovushi ُ– harakati orqali, ikkinchi variantda و harfi vositasida ifodalangan. Tahlilga tortilgan leksema varianti bo‘lgan اوگوت *ögüt* so‘ziga e‘tibor qilinsa, ü tovushi harf va harakat juftligi (ُ– va و)da ifodalangan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida “bo‘lmoq, qismlarga ajratmoq” ma‘nosini anglatuvchi اولوشمك , اولوشمك , اولوشمك *üläšmək, ülüšmek* (I, 151) leksemasini L.Budagov uch variantini qayd etgan, *üläšmək* variantida ikkinchi bo‘g‘indagi ä tovushi harf va belgi (ا va َ-) yordamida ifodalangan, birinchi bog‘indagi ü tovushi ۋ orqali voqelangan: اولوشمك , اولوشمك; variantlarda leksemaning nafaqat yozuvdagi farqi, balki talaffuzdagi farqlar ham mavjudligi aks ettirilgan: اولوشمك , اولوشمك *üläšmək* leksemasida ikkinchi bo‘g‘indagi ä unli tovush ü tarzida اولوشمك *ülüšmek* tarzida iste‘molda bo‘lgan; birinchi shaklga nisbatan ikkinchi shaklda unli belgilarsiz, faqat harflar bilan ifodalanishi (اولوشمك) yozuvda ham variantlilikni yuzaga keltirgan.

Lug‘atda mavjud eski o‘zbek (chig‘atoy)cha leksemalar 38 turdagi mavzuiy guruhlarga ajratilib o‘rganildi. Quyida ayrimlari keltirildi:

- 1) ijtimoiy-siyosiy terminlari: بورلا *borla* “tamg‘a. Xiva xonliklarida qo‘llanilgan uzunchoq shakldagi muhr” (I, 276), جانقى , جنقى , جنقى , چانقى *janqī, janğī, čanqī* “kengash, fikr, buyruq” (I, 430);
- 2) harbiy istilohlar: ارتوج = اردج *artoj, ardiy* “nayza” (I, 26), چاقار , چاقار *čarqar, čaqar* “qal‘aning tashqi himoyasi” (I, 459);
- 3) tabiat hodisalari: ايلدام *ildām* “shamol, yel” (I, 83), چاۋن *čävün* “yomg‘ir va qorning shamol aralash yog‘ishi” (I, 466); a) vaqt, yil, fasl, oy va kun istilohlari: اۋشۋ *üšü* “shu, mana shu; ushbu yil; hozirgi vaqt” (I, 138), اونك *öñ* “biror-bir narsa oldidagi masofa, avvalgi, oldingi” (I, 148);
- 4) urug‘, qavm, qabila nomlari: تايۋ *tayavu* “chig‘atoylar qabilasi nomi” (I, 362), ئكلو *tüklü* “Fors mamlakatidagi turk qabilasining nomi” (I, 369);
- 5) qon-qarindoshlik terminlari: ازم *âzam* “farzand, avlod” (I, 37), تانۋاز *tänváz* “xotinning urug‘i” (I, 382);
- 6) antroponimlar: اسان *asän* “Xasan - juda yaxshi, juda chiroyli (a. Hassan) (I, 39)”, تكانش *täkäs* “Alp-Arslonning zamondoshi bo‘lgan Xorazm xonlaridan birining ismi” (I, 368);
- 7) toponimlar: چيمكانت *čimkánt* “Toshkentdan 100 versta (1 versta 1067 metr)ga teng) masofada joylashgan shahar va qal‘a” (I, 450), منگغشلاق , مانگغيشلاق *manğışlaq, manyışlaq*,

¹⁷ Умаров Э. А., Словари староузбекского языка и вопросы фонетики, –Т.: Фан, 1994.

* so‘zlar transkripsiyasi lug‘atda qanday bo‘lsa, shunday berildi. Faqat k-q, g-g‘ undoshlari almashtirildi.

manqishlaq “Mang‘ishloq, qirg‘iz va turkmanlar ko‘chib yuradigan Kaspiy dengizidagi orol va uning sharqiy qirg‘og‘ida joylashgan yerlar” (I, 259);

8) gidronimlar: بوکات *bökät* “to‘g‘on” (I,286), تین *tiin* “Don (daryo)”, “nafas” (I, 423);

9) fitonimlar: تَنْبُول *tänbül* “hushbo‘y hid taratuvchi Hindistonda o‘sovchi va o‘sha yerda oziq sifatida ishlatiladigan barg” (I, 320), قرقند *qirqand* – “Kobuliston tog‘larida o‘sovchi va yaxshi yonuvchi kichik tikanli buta” (II, 50);

10) somatizmlar: اوزيش *üzis* “ruh, tana va bosh, butun vujud” (I, 135), ايرُن ، ايرُون *eyrün* “lab” (I, 191) kabi.

Ijtimoiy-siyosiy leksika lug‘aviy boylikning jamiyat siyosiy hayoti yoki siyosiy tizimiga bevosita aloqador bo‘lgan hodisalar, jarayonlar va munosabatlarni ifodalovchi, ayni vaqtda, ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, ma‘naviy-ma‘rifiy omillar asosida shakllanuvchi va o‘zgaruvchan qatlamidir. Qadimgi turkiy tilda “Qoraxoniylar sulolasining eng birinchi vakillari” ma‘nosida qo‘llangan *buyra xan* “qoraxoniylarda keng tarqalgan nom” (DTS, 120) hamda “Qutadg‘u bilig”da keltirilgan “Qashqar, Bolasog‘un va Xo‘tanning hukmdori (1074/5-1102/3)” (QBK, 2/6) ma‘nolarini anglatgan istiloh ilk eski turkiy tilda *buyra qara xan* shaklida (MK, III, 221) qo‘llanishda bo‘lgan. V. Radlov lug‘atida ushbu leksema *бугра* (RSL, IV, 1807), *пугра* (RSL, IV, 1362) shakllarida “bo‘taloq”; “xon nomi (بوغرا خان)”, “makaron, vermishel” ma‘nolarini anglatib, *бугра/буэра* (ESTYA, II, 235) shaklida manbalarda qayd etilgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida “taom turi” ma‘nosida *bugro* leksemasining eski o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilganligi ANATILda quyidagi parchani keltirish asnosida dalillangan: *Bir kün Gavharšádbegim madrasasi tālib-i ilmlāri bir bāyda suhbat tutib, buyra piširādūr ermišlār (Xamsat ul-mutahayyirin, 707)* kabi. Taom turi ma‘nosidagi leksemaga omonim sanalgan *buyra/buyri* zoonimi “ikki o‘rkachli tuya” ma‘nosini ifodalashi quyidagi misol yordamida ochiqqlangan: *Ulki bolıyay buyri yanlıy uluy, Yol nečük, qat’ aylayay bolmay ázuy* kabi (ANATIL, I, 343).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *buyra/buyro* omonimlar ikki xil ma‘no kasb etishi O‘TILda qayd etilgan: 1) *buyra*: “*Faqat bug‘ralar, ya’ni tuyalargina bahorning boshida xayfli bo‘ladi (M.Osim, Karvon yo‘llarida)*”, 2) *buyro*: Qoraxoniylar xoqonligi (X-XI asrlar)ning g‘arbiy qismini xoqon nomidan idora qilgan sulola xonlarining unvoni (O‘TIL, I, 394). *بُغْرَاخان ، بُغْرَا buyraxan, buyra* leksemasi L. Budagov lug‘atida ham “Xorazm xonining nomi hamda uning nomiga atalgan lag‘mon taomining nomi” (I, 284) *boyra* tarzida ayni shu ma‘noda keltirilganligi davrlar osha leksema ma‘nosiga putur yetmaganligini ko‘rsatadi.

Qadimgi turkiy tilda “bahorda yoki kunlar isigach yog‘adigan qalin qor yoki sovuq havo va undan keyingi chorvalarning qirg‘ini” (RSL, III, 560), “muzlama” ma‘nosi (DTS, 282; Zen, II, 958) *يوت ، يوت بولدی yut, yut boldi* (II, 370) leksemasi orqali ifoda etilgan. *Yut* yordamida -a affiksi orqali yasalgan so‘zlardan *yuta-* so‘zi ko‘p uchraydi. Masalan, *yuta-* “qirilmoq” leksemasi *yut* paytidagi chorva haqida fikr yuritilganda qo‘llanilgan (ESTYA,V, 256). *Jut* 1) hayvonlarning o‘limiga olib keluvchi muzlama (MK, III, 142); 2) ko‘chma ma‘noda “kulfat, ofat, baxtsizlik”: *köjār otqa jaqša aňar jut turur (QBH, 33/7)* – kim yonib turgan olovga yaqinlashsa, kulfat keladi. *Ažunqa bāla ol bodunqa jutı (QBH, 36/2)* – dunyo uchun u - balo, xalq

uchun – baxtsizlik (DTS, 282). *Yut* leksemasi “hayvonlarning o‘limiga olib keluvchi muzlama”ni anglatishi davr o‘tishi bilan “chorva ocharchiligi”, “chorva o‘lati” ma’nosida qo‘llangan. “*Uvoq mollar ko‘taram bo‘lib, yut boshlandi*” (*Sunnatilla Anorboyev*). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu so‘z asli “yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lib, qattiq sovuq oqibatida yer muz bilan qoplangan holat”ni anglatgan (MK, III, 156); ana shunday holatda chorva mollari yemishsiz qolib, ocharchilik natijasida qirilgan; keyinchalik bu so‘z umuman “ocharchilik” ma’nosini anglata boshlagan (O‘TEL, 188). Tahlil etilayotgan leksema omonimik harakterga ega bo‘lib, “bo‘g‘iz muskullari ko‘magida og‘izdagi narsani tomoqdan ichkariga o‘tkaz-”; “muvaffaqiyat qozon-, yutuqqa erish-” kabi semalarni o‘zida mujassam etadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *qirg‘in* “kishilar ko‘plab, yoppasiga qiriladigan, ko‘p qon to‘kiladigan urush, jang, bosqin; xunrezlik”, “ko‘plab o‘lish, qirilish; o‘lat”, ko‘chma ma’nodan “qattiq janjal; urush” (O‘TIL, V, 303) kabi ma’nolarni ifodalaydi.

“**Lug‘atda eski o‘zbekcha so‘zlarning izohlanish yo‘llari**” deb nomlangan III bobda eski o‘zbekcha so‘zlarning muqobillar, sinonimlar, shuningdek, qardosh turkiy til manbalari bilan qiyoslagan holda mohirona izohlanganligi tahlilga tortilgan. L. Budagov “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug‘atini tuzishda muqobillik tamoyiliga to‘la rioya qilgan. Lug‘atshunoslikda ekvivalentlik yo‘li bilan tarjima qilish usulining afzalligi shundaki, lug‘atchi u yoki bu so‘z ma’nosini ochishda uning boshqa tildagi muqobilini keltiradi. Masalan, L. Budagov lug‘atida *дж. belgisi* تالقماق *talqamaq* (I, 337) “olovda qovurmoq”, تالقونكيز *talqangiz*, تالقونگيز *talqungiz* – “qovuring”, تالقان *talqan* “qo‘l bilan maydalab yeyiladigan yetilmagan va qovurilgan javdar” ma’nolarini ifodalovchi leksema umumturkiy tilda (lug‘atda *мып. belgisi* bilan qayd etilgan) تولمه بغدادى *tolma buyday*, forscha پيش خورد *piš xurd*, qozoncha *jo‘xori uni*, oltoycha *un* muqobillarini keltirgan, qirg‘izchada تالقان *talqan* otidan تالقاندو *talqandov* “maydalash, bo‘laklarga bo‘lish” harakat nomi shakllanganini ta’kidlaydi: *soň talqandab tasdaydi bezgak ustayan* – isitma odamni butunlay ezib tashlaydi; tahlilga tortilgan leksema ط تالقماق *talqımaq* qozon leksikonida ham mavjud bo‘lib “yungni savalamoq”, تالقى *talqi*-tegirmon (terini oshlash uchun), تالقنماق *talqanmaq* “maydalanmoq”, ط تالشق *talšuq* “qirg‘iy och qolmasligi uchungina unga oz-ozdan berib turiladigan go‘sht bo‘lagi”ni ifodalagan va leksema tarkibidagi *t* tovushi ba‘zan ت, ba‘zan ط harfi bilan ifodalangan. Leksemaning “oz-oz yemoq” ma’nosi qozonchada تالشقتامق *tášqatamaq*, chig‘atoychada تاله تاله *tala tala* ekvivalenti bilan tarjima qilinib, “oz-ozdan, bo‘lak-bo‘laklab” (پاره پاره *pora pora*) ma’nosini anglatgan.

L.Z. Budagov yig‘ilgan so‘zlarning tarjimasidan tashqari V. Daldagi kabi sinonimlardan foydalangan holda ularni izohlash unsurlaridan keng foydalangan. So‘zlarni izohlashda L. Budagov “Wörter und Sachen” metodikasidan foydalangan: u so‘zlarni ular anglatgan predmetlar yoki tushunchalar haqida ma’lumot berish orqali izohlagan. Shu orqali lug‘at turkiy xalqlarning eski turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti haqidagi ensiklopediyaga aylanib bordi¹⁸. Lug‘atdagi

¹⁸ Дмитриев Н. К. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий Л. Будагова / Публ., комм. и примеч. Благовой Г. Ф. // Н. К. Дмитриев: К 100-летию. М., 2001. С. 132.

sinonimlar haqida to'xtalganda, bir masalani inobatga olish darkor, ya'ni bir so'zning turli tildagi tarjimasi (lug'ati) bir-biri bilan sinonim bo'la olmaydi. Masalan, ايركا (e) ايركە *erkä* chig'atoycha (нежный, ласковый, приятный, кокетство - muloyim, erka, yoqimtoy) leksemasining кир. belgisi orqali qayd etiluvchi qirg'izcha tarjimasi (баловень (матушкин сынок)) o'zaro sinonimlikni hosil eta olmaydi. Ko'p tilli lug'atlarda sinonimlikning yuzaga chiqishi lug'at maqola tarkibida bir til tarjimasi (izohi)da sinonimik qator mavjud bo'lgandagina voqelanadi. Masalan, ايسمك *ismek* fe'lidan hosil bo'lgan ايسر *i:sar* leksemasi lug'at maqolada "tonggi shabboda, nasim" tarzida izohlangan. Izohdagi *tonggi shabboda* va *nasim* leksemalari o'zaro sinonim bo'la oladi. Lug'atchi tomonidan leksema izohlanayotganda bunday sinonimlardan foydalanishi leksema mazmunini aniqroq anglashga ko'maklashadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida "tikka holatdan yotqizmoq, yiqitmoq" ma'nosini ifodalovchi *ag'darmoq* leksemasi (O'TIL, I, 129) lug'atda chig'atoycha انگترمق *añtırmaq* leksemasi lug'at maqolasida *yiqitmoq*, *ag'natib tashlamoq* leksemalari bilan ma'nodoshlikni hosil qilgan holda leksema izohiga oydinlik kiritishda qo'llangan. Leksemaning *ag'darmoq* semasi O'TELda ayni ma'noda "tik holatdan ko'ndalang holatga o'tkaz-" ma'nosiga egaligi aks etgan leksema qadimgi turkiy tildagi "bir tomonga egil-" ma'nosini anglatgan a:g' fe'lining ag' shakliga -dar ortirma nisbat qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan (ESTYA, I, 74). Ma'lumki, keyinchalik a unilari ä unililariga almashgan: ag' - + dar = ag'dar- > äg'där-. Bu so'z tarkibidagi ag' - fe'lining qatnashgani (a unlisining â unlisiga almashmagani) uning qadimgi turkiy tildagi shaklda saqlanganini ko'rsatadi (chunki o'zbek tilida ag' - fe'li äg' - shakliga o'tgan) (O'TEL, 36), O'TILda yuqorida keltirilgan ma'noga qo'shimcha ravishda yana 6 ma'noda qo'llanilishi qayd etilgan leksemaning eski o'zbek adabiy tilida *ag'natmoq-dumalatmoq* ma'nosida (ANATIL, I, 168) qo'llanilganini ANATILda "Xazoyin ul-maoniy"dan berilgan bayt orqali asoslangan:

Xará tübigä yatquñ yoq sud ägär yüz yil

Kök atlası üstidä jismiñni yatib aynat. (IIa-48)

Tahlil etilayotgan eski o'zbekcha leksemaning ma'nolari o'zaro sinonimligini *aydarmaq* leksemasining izohida ham ko'rish mumkin, shunday bo'lsa-da, *yiqitmaq* leksemasining izohiga bir nazar solish o'rinli. "Kuch bilan qulatmoq, ag'darmoq, ag'natmoq, buzmoq" semalari *yiqitmoq* leksemasida aks etishi hamda besh ma'noga egaligi O'TIL (II, 271)da qayd etilgan. Tahlillardan ko'rinadiki, *aydarmaq* va *yiqitmaq* leksemalarning anglatgan ma'nolari ularning o'zaro sinonimligini tasdiqlaydi va L.Budagov chig'atoycha انگترمق *añtırmaq* leksemasi izohlashda yuqoridagi so'zlarni qo'llashi lug'at maqolada sinonimlikni yuzaga keltirgan.

Lug'at tarkibiga kiruvchi har bir leksema muallif uchun muhim bo'lgan, har biriga oddiygina izoh beribgina qolmasdan ayni leksema oid bo'lgan xalqning og'zaki va yozma ijod namunalari hamda qardosh xalqlar manbalaridan ham parchalar keltiradiki, qardosh xalqlarda o'zaro ilmiy-madaniy aloqalar mavjudligini ko'rsatadi. Eski o'zbek (chig'atoy)cha so'zlarni izohlashda "Sangloh", "Qirg'iz

tilini o'rganishga oid materiallar", "Kalkutta lug'ati", "Lug'at-i Turki", "Ferhangi Shuri" kabi manbalardan foydalanilgan.

Qardosh turkiy tillar tarixini o'rganish fors tilidagi manbalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shulardan biri Burhoni qoti asarlari yuzasidan Muḥammad Husayn ibn Halaf Tabrizi tomonidan tuzilgan II jildli "Burhoni qoti" lug'atidir. Hozir Kolumbiya universiteti kutubxonasida saqlanayotgan ushbu lug'at hijriy 1248 (milodiy 1832)-yilda Bombayda nashr etilgan bo'lib, eski o'zbek adabiy tiliga oid leksemalarni izohlashda qimmatli manbalardan biri hisoblanadi. L.Budagov lug'atida bu asar *Бурх* belgisi bilan qayd etilgan.

"O'simliklarning ozuqa va suv so'rib oluvchi yerosti qismi" sememali *ildiz* so'zi qadimgi turkiy tildagi "qimirlash", "jilish" ma'nosini anglatgan yil || yil otidan –diz, (-tiz) qo'shimchasi bilan yasilib (ESTYA, I, 350; MK, III, 47), asli "ozuqa va suvni jildiruvchi qism" ma'nosini bildirgan bu leksema o'zbek tilida *yildiz* shaklida ishlatilib, keyinchalik so'z boshidagi y undoshi talaffuz qilinmay qo'yilgan, i unlilarining qattqlik belgisi yo'qolgan: yil- + diz = yildiz > ildiz > ildiz (O'TIL, 114). L.Budagov lug'atida *дж. pometali* ایلدز *ildiz* (I, 206) leksemasi lug'at maqolada ildizning aynan, limon ildizining qaynatma sharbati ichilsa, zaharning zahrini yo'qotuvchi (Bab. 371) xususiyati mavjudligi keltirilgan. Bunga qo'shimcha ravishda, "Burhni qoti"dagi ¹⁹ بعضی کویندکه اب لیمودقع سهم ماروعقرب کند – limon sharbati ilon va chayon chaqishiga qarshi shifo xususiyatiga ega o'simlik ekanligi haqida ma'lumotni keltirib, *ildiz* leksemasining ma'no-mazmunini to'laqonli ochib beradi.

Muallifning leksemalarni izohlash jarayonida turli manbalardagi materiallardan mohirona foydalangani u tomonidan yaratilgan lug'atning ensiklopedik xususiyatini yuzaga chiqargan.

Xulosa

Lazar Budagovning "Сравнительный словарь турецко-татарских наречий" lug'atida eski o'zbekcha so'zlarni ajratish va ilmiy asosda tadqiq etish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. XV-XIX asrlarda Markaziy Osiyo hududlarida istiqomat qilgan qarindosh turkiy tillar so'z boyligida mavjud turli leksik birliklar, istilohlar, urug' nomlari, ularning tilida qo'llanuvchi maqol va matallarni bir joyga jamlab, izohlangan L.Budagovning lug'ati tojirlar, turkiy tillarni o'rganuvchi talabalar, turkiyshunoslar hamda til bo'yicha tadqiqot olib boruvchilar uchun mo'ljallangan. Lug'atnavis ashyoviy materiallar keltirish asnosida so'zlarni izohlashda qayd etilgan asrlarda bitilgan 20ga yaqin, chunonchi, Alisher Navoiy, Bobur, Abul-G'oziy asarlaridan foydalangan. Ulardan asosiylari XV-XVII asrlarda yozilgan edi. XIX asrning ikkinchi yarmida qo'llanishda bo'lgan o'z qatlam lug'atda izohlangan so'zlarning asosini tashkil qiladi.

2. L.Z.Budagov umri davomida alifbo, uch tilli lug'atlar, darslik va qo'llanmalarni foydalanuvchilarga taqdim etgan. Ularning ichida turkologiyada mashhuri, bevosita unga xizmat qiluvchi ikki jildli "Сравнительный словарь

¹⁹ <https://hdl.handle.net/2027/nnc1.0037118790>

турецко-татарских наречий” lug‘atidir. L.Budagov bu lug‘atni tuzish jarayonida V.Dalning “Толковый словарь живого великорусского языка”ni tuzishda qo‘llagan usulga tayangan. Asarning Kirish qismida ushbu lug‘atning tuzilish tamoyillari haqida hech qanday ma’lumot berilmagan. Tadqiq jarayonida lug‘atnavis ingliz va nemis lug‘atshunosligida ishlatilgan “Robertson metodi” hamda “Wort und Sache” uslublaridan samarali foydalanganligi ayon bo‘ldi.

3. Eski o‘zbekcha so‘zlarni izohlashda quyidagi tamoyillar qo‘llangan:

1) so‘zlar arab alifbosiga mos ravishda ildiz tizimiga ko‘ra yoki ich-ichidan joylashgan: me‘yorlashgan so‘zdan keyin uning hosilalari berilgan. Umumiy turkiy so‘zlardan keyin ularning sheva shakllari kelgan. So‘zlar arab alifbosida rus tiliga tarjima va talqini bilan berilgan. Eski o‘zbekcha so‘zning ruscha muqobili ba‘zan bir so‘z, ba‘zan ikki yoki uch so‘z bilan izohlangan; so‘zlar kerakli o‘rinlarda sharhlangan;

2) biz tomondan olib borilgan hisob-kitobga ko‘ra, I jildda eski o‘zbek adabiy tiliga oid bo‘lgan 1407 ta so‘zning 139 tasigina (9,9%) transkripsiyada berilgan. Lug‘atning II jildda 510 ta eski o‘zbekcha so‘zning 478 tasi (93,7%) transkripsiya bilan qayd etilgan;

3) asardagi arabiy harflar kirill alifbosidagi muqobilini ifodalash hamda so‘zning boshida va orqasidan unli harf kelganda, uning yoniga qo‘yilgan yoki nazarda tutilgan undosh belgilar ta’sirida qanday tallafuz qilish yuzasidan lug‘atnavis har bir harf bilan boshlanuvchi leksemalar qatori oldidan bir lug‘at-maqolani harfga bag‘ishlagan;

4) izohlangan eski o‘zbekcha so‘zlar ayrimlari bevosita “Kalkutta lug‘ati”, ba‘zilarini esa “Abushqa” lug‘ati bilan qiyoslangan;

5) muayyan so‘zning etimologiyasiga diqqat qaratilgan leksemaning qaysi so‘zdan kelib chiqqani xususida morfemik ma’lumot berilgan;

6) so‘zlarning ma’nolarini izohlashda manbalardan olingan havolalar qavs ichida berilgan, asarning nomi to‘liq yoki qisqargan holatda, ba‘zan sahifasi ko‘rsatilgan, ba‘zan ko‘rsatilmagan;

7) sinonimlar alifbo tartibida o‘z o‘rnida bosh so‘z sifatida berilib, mustaqil ravishda izohlangan; omonimlar alohida maqolalarda aks ettirilmagan, bosh so‘z lug‘at maqolasi tarkibida arab raqamlari bilan bir-biridan farqlangan holda keltirilgan;

8) qo‘shma so‘zlar so‘z maqola sifatida emas, balki asosiy leksemaning maqolasi tarkibida berilgan, ba‘zi o‘rinlarda birikmalar bosh so‘z sifatida berilgan o‘rinlar mavjud;

9) ayrim hollarda asosiy leksemaga izoh berilmagan o‘rinlar ham mavjud bo‘lib, fonetik jihatdan variant leksemaga ishora qilingan. Ishora qilinayotgan leksema ayni yoki boshqa tilga oid bo‘lishi yoxud butkul boshqa tilga mansub so‘z maqola tarkibida kelgan muqobilga ishora qilingan holda izohlangan;

10) muayyan so‘zning turli fonetik shakllari bir lug‘at maqolada berilgan hamda yozuvda harakatning aks etishi yoki aks etmasligidan qat’iy nazar ularning talaffuzda o‘rniga ko‘ra farqlar mavjudligi qayd etilgan, ba‘zan lug‘atnavis

tomonidan leksema tarkibida unli harflarning qay tarzda o‘qilishi transkripsion belgi vositasida qavs ichida aks ettirilgan.

4. Lug‘at so‘z boyligini statistik nuqtai nazardan o‘rganish eski o‘zbekcha leksik birliklarning soni yuzasidan aniq ma’lumotga ega bo‘lish, eski o‘zbekcha leksemaning mushtarak holatda hamda boshqa leksema maqolasi tarkibida qayd etilish miqdori bo‘yicha nisbati to‘g‘risida fikr-mulohaza yuritish hamda o‘sha davr so‘z boyligining o‘ziga xos jihatlari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishda qo‘l keladi.

Ikki jilddan iborat lug‘atda jami 25200 ta leksemaning izohi keltirilgan, shulardan 1917 tasi, ya’ni (7,6%) bevosita eski o‘zbek adabiy tiliga oidligi bilan imliy ahamiyatga molik. Eski o‘zbekcha leksemalar quyidagi so‘z turkumlariga ajratildi: 1. . Ot so‘z turkumiga oid leksemalar 1232 ta (64,2%) tashkil etadi. Shundan, 53 ta (4%) atoqli ot, 1179 ta (96,2%) turdosh ot hisoblanadi. 53 ta atoqli otdan 5 ta (9,4%) antropomim, 2 ta (3,7%) toponim, 33 ta (62,2%) urug‘, qabila nomlari, 6 ta (11,3%) kosmonim, 3 ta (5,6%) gidronim, 4 tani (7,5%) diniy-tasavvufiy istilohlar (teonim) tashkil etsa, 1179 ta turdosh otdan 77 ta (6,5%) shaxs, 60 ta (5%) o‘rin-joy, 945 ta (80%) narsa-buyum (harbiy istilohlar 112 ta (11,8%), somatizm 83 ta (8,7%) , maishiy leksika 114 ta (12%), oziq-ovqat 57 ta (6%), zoonim 202 ta (21,3%), fitonim 51 ta (5,3%), gidronim 22 ta (2,3%) va h.b.), 34 ta (2,8%) faoliyat-jarayon, 63 ta (5,3%) mavhum otlardir. 2. 167 ta (8,7%) sifat. 3. 10 ta (0,5%) son. 4. 26 ta (1,3%) olmosh, 5. 419 ta (21,8%) fe’l. 6. 49 ta (2,5%) ravish so‘z turkumlari tashkil qiladi. Statistik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, lug‘atga eng ko‘p ot, sifat, fe’l so‘z turkumlari kiritilgan.

5. Asarda qayd etilgan eski o‘zbekcha so‘zning Дж. belgisi bilan 1484 ta (77,4%), qardosh tillarda ham qo‘llanuvchi leksema 433 ta (22,6%) mavjud. Mushtarak qo‘llanuvchi 433 ta leksemadan chig‘atoycha (Дж.) belgisi birinchi planda qayd etilgan leksema 382 ta (88,2%), ikkinchi planda leksema 51 ta (11,8%) ni tashkil etgan. Lug‘atda o‘zga til leksemalari lug‘at-maqolasi tarkibida ham eski o‘zbekcha izohlar 835 o‘rinda qayd etilganligi aniqlandi. Bu esa umumiy hisobda lug‘atda 2752 (10,9%) o‘rinda eski o‘zbekcha leksema izohi mavjudligini ko‘rsatadi. Uch jihatdan amalga oshirilgan statistik tahlil natijalari harflar kesimida tahlil etilganda leksemalarning miqdoran yuqori ko‘rsatgichi alif harfi bilan boshlanuvchi so‘zlar ekanligi a‘yon bo‘ldi.

6. Tadqiqot jarayonida lug‘atda izohlangan leksemalar tarkibida mavjud eski o‘zbekcha so‘zlarning 584 tasining (30,4%) fonetik shakl (variant)lari ham izohlangani ma’lum bo‘ldi. Leksemalarda fonetik shakllarning yuzaga chiqishi nafaqat harf va belgi o‘rtasi, tovush almashinuvi, balki yozuvdagi turlicha ifodalanishlar oqibatida ham yuzaga kelgan. Lug‘atdagi mavjud grammatik va fonetik ma’lumotlar lug‘atnavisning turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi va fonetikasi haqidagi dunyoqarashi naqadar yuksak darajada bo‘lganligini tasdiqlash imkonini beradi.

7. Lug‘atdan o‘rin olgan eski o‘zbekcha leksemalarni mavzuiy guruhlariga ajratib tadqiq qilish so‘zlarning tarixiy taraqqiyoti, ularning jamiyat ehtiyojlarini qondirish, ayni chog‘da, tilning o‘tmishi va bugungi holatini belgilashda samarali

usullardan biri ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Statistik tahlilga ko‘ra, lug‘atda 38 ta mavzuiy guruhga oid so‘zlar izohlangani aniqlandi.

Asardagi eski o‘zbekcha qatlam asosan “hajm-o‘lchovni ifodalovchi so‘zlar”, “maishiy leksika”, “harbiy istilohlar”, “toponimlar”, “somatizmlar”, “zoonimlar” singari mavzuiy guruhlarda o‘z ifodasini topgan. Lug‘atda qayd etilgan leksik birliklarni mavzuiy guruhlarga taqsimlab o‘rganish ularning qaysi sohaga tegishliligi, kelib chiqishi, vazifasi hamda qo‘llanish doirasini aniqlash, tilning tarixiy va hozirgi holatini baholash, qolaversa, xalq tarixi bilan til tarixining bir-biriga bog‘liqligini atroflicha yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

8. Lug‘atshunoslar tomonidan faol qo‘llanuvchi ekvivalent (muqobil) bilan izohlash yo‘li leksema ma‘nosining tushunilishini qulaylashtiradi. L.Budagov tomonidan so‘z lug‘at maqolasini shakllantirishda qo‘llanilgan ushbu usul samarali bo‘lib, har bir leksemaning boshqa bir tildagi ma‘nosini keltirishda xalq merosiga oid ashyoviy materiallarni ham taqdim etishi leksemaning qanday vaziyat va holatlarda qo‘llanilishi, salbiy-ijobiy ottenka ma‘nolarni ifodalashda ko‘makdosh bo‘la oladi. lug‘atshunosning bu usuldan foydalanishi uning O‘rta Osiyo xalqlari tili va adabiyoti haqida chuqur bilimga egaligini yana bir bor tasdiqlaydi.

9. Leksemalar ma‘nosini izohlashda sinonimlardan foydalanish nazarda tutilgan so‘zning ma‘no nozikligi (qirralari)ni ochishda muhim tamoyillardan biridir. Sinonimlar yordamida leksema lug‘at-maqolasini shakllantirish shuni ko‘rsatadiki, bosh (dominant) leksema atrofida jamlanuvchi ma‘nolar hisobiga eski o‘zbekcha leksemalar aniqlanganidan-da miqdoran yuqori ko‘rsatgichga ega.

Turkiy leksikografiya, chunonchi, o‘zbek lug‘atshunosligida XIX-XXI asrlarda tuzilgan yigirmadan ortiq lug‘atga o‘ziga xos bo‘lgan kerakli ashyoviy materiallarni berishi bilan qimmatli hisoblanadi. Keyingi davrdagi tuzilgan bir qator lug‘atlarning yaratilishida, so‘zlarning izohini keltirishida lug‘atnavislar L.Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug‘atidagi berilgan izohlardan unumli foydalangan.

10. L.Budagov lug‘atida izohlangan eski o‘zbekcha leksemalarni o‘ndan ortiq etimologik, izohli lug‘atlar bilan solishtirish natijasida manbadagi eski o‘zbekcha so‘zlar tarkibida hozirgi o‘zbek adabiy tilida semantik qurilish jihatidan ma‘no kengayishi, ma‘no torayishi hodisasiga uchragan, eskirgan yoxud qo‘llanishdan qolib, tarixiy birliklar qatoridan o‘rin olganligi ma‘lum bo‘ldi.

Umuman “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug‘ati ko‘p asrlik tarixga ega qardosh turkiy tillar so‘z boyligi, xossatan, o‘zbek adabiy tili leksikasi borasidagi nazariy qarashlarga oydinlik kiritadi, o‘zbek tili tarixiy leksikografiyasi uchun boy material beradi.

**ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL ON THE BASIS OF THE
SCIENTIFIC COUNCIL OF DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 OF THE
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

TUXTASINOVA MAHLIYOXON SHAVKATJON QIZI

**THE INTERPRETATION PRINCIPLES OF THE OLD UZBEK LAYER IN
THE DICTIONARY “SRAVNITELNYY SLOVAR TURETSKO-
TATARSKIX NARECHIY” BY L.Z.BUDAGOV**

10.00.11 – Theory of language. Applied and Computer Linguistics

**ABSTRACT OF DISSERTATION
FOR THE DEGREE OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHILOLOGICAL
SCIENCES**

Tashkent – 2024

The theme of the dissertation for Doctor of philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number B2021.3.PhD/Fil2028.

The dissertation has been carried out at the Tashkent State university of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (abstract)) on the Scientific council's website (www.tsuull.uz) and on an informational and educational portal Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Scientific adviser: **Dadabayev Khamidulla Aripovich**
Doctor of Philological Sciences, Professor

Official opponents: **Orazboev Abdulla Durdiboevich**
Doctor of Philological Sciences, Professor

Khusanov Nishonboy Abdusattarovich
Doctor of Philological Sciences, Professor

Leading organization: **Institute of Uzbek language, literature and folklore**

The defence of dissertation will take place on “___” _____ 2024 at _____ at the meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 at the Tashkent State university of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi. Address: 100100, Tashkent, Yakkasaroy district, Yusuf Xos Hojib, 103. Phone: (99871) 281-42-44; Fax: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

The dissertation is available at the Information Resource Center of the Tashkent State university of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi (registered under number #_____). Address: 100100, Tashkent, Yakkasaroy district, Yusuf Xos Hojib, 103. Phone: (99871) 281-42-44; Fax: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Abstract of dissertation is sent out on “___” _____ 2024.

(Protocol registered of #___ on “___” _____ 2024).

B.B.Abdushukurov

Chairman of one-time Scientific Council on the basis of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

Q.U.Pardaev

Scientific Secretary of one-time Scientific Council on the basis of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Associated Professor

S.E.Normamatov

Chairman of one-time Scientific seminar on the basis of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

Introduction (PhD dissertation abstract)

Relevance and necessity of the research topic. The rapid development of the fields of linguistics and lexicology in world science requires researchers to justify dictionaries, their essence, linguistic and social functions, and methods of dictionary creation. Researching the rich scientific heritage created as a result of hard work and efforts of lexicographers is one of the important tasks of today.

In world linguistics, issues such as lexicography, traditions of creating a dictionary, implementation of unique convenient and effective, tested methods of language learning and their wide use, creating conveniences for language learners, etc. remains in the spotlight. In particular, in lexicology, there are a number of studies devoted to the creation of various dictionaries, their research, the study of the construction and essence of dictionaries created in history, and their comparative analysis. A detailed study of the principles of creation of historical dictionaries preserved as unique manuscript sources has not lost its importance as an important problem. Therefore, in the study of the historical development of the language, it is considered one of the important issues to compare it with modern views.

Currently, comprehensive opportunities and conditions for studying the scientific heritage of our ancestors have been created in our country, and targeted scientific-research works dedicated to this issue are being carried out. At the moment, one of the priorities is to reveal the unexplored aspects of the unique scientific heritage, in particular, the research of unique resources kept in the Republic and foreign funds. “Currently, more than 100 thousand ancient manuscripts are stored in the book collections of Uzbekistan. Unfortunately, these unique books have not yet been fully studied; they are waiting for their researchers and readers. On the pages of these rare works one can find answers to many problems of our time. In particular, to this day, deep thoughts and ideas that have not lost their relevance, which reveal the truly humanistic essence of Islam, call all people, regardless of their nationality, religion and social status, to kindness, mercy and harmony. At the same time, it should be frankly admitted that we, being the heirs of such a unique property, have not yet done everything to study them, familiarize our compatriots, especially the younger generation, as well as the international community, with them”²⁰. Creating and maintaining an electronic database of manuscripts preserved in Uzbekistan today, organizing their in-depth study on the basis of a system and theoretically describing them, publishing scientific explanations of written monuments in Uzbek and foreign languages in the mass media and on the Internet, sufficient conditions have been created for students to familiarize with the works of leading local and foreign scientists and to study them. Here, “*Sravnitelnyy slovar turetsko-tatarskikh narechiy*” (“Comparative dictionary of Turkic-Tatar languages”), published by Lazar Zaharovich Budagov in 1869-1871, is distinguished by its unique status. In the dictionary, along with many Turkic languages, the explanation of many words and terms recorded in the written sources of the old

²⁰ Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Senate and the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. Xalq suzi. -T., December 23, 2017, #258.

Uzbek (Chagatai) literary language is reflected. Until now, in Turkic studies, the principles of the structure of this dictionary, the ways of interpretation of the words and terms reflected in it, and the impact of the dictionary on the lexicology of the later period have not been specially researched. A detailed study of the above-mentioned aspects determines the novelty and relevance of this dissertation.

This dissertation serves to a certain extent in the implementation of the tasks defined in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan – PF-4797 of May 13, 2016 “On the establishment of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi”, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan – PF-5850 of October 21, 2019 “On measures to fundamentally increase the prestige and position of Uzbek language as a state language”, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan – PF-6084 dated October 20, 2020 “On measures to further develop Uzbek language in our country and improve the language policy”, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan – PF-60 of January 28, 2022 “About the Development Strategy of New Uzbekistan for the period 2022-2026”, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan – PQ-2909 of April 20, 2017 “On measures for further development of the higher education system”, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan – PQ-2995 of May 24, 2017 “On measures to further improve the system of preservation, research and promotion of ancient written sources” and other normative legal documents.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. The dissertation was completed within the framework of the priority direction of “Building a digitized society and development of social, legal, economic, cultural, spiritual and educational state, development of innovative economy”.

Level of study of the subject. A number of scientific studies have been carried out by foreign scientists, like V.Axvledian, A.Kononov, V.Ribalkin, V.Bartold, A.Borovkov, P.Zayanchkovskiy, A.Xolidov, S.Ivanov, V.Velyaminov-Zernov, V.Kapranova, Ahmad Otash, A.Avanesov, P.K.Jyze, on the development of Eastern, particularly, Uzbek lexicology, on the principles of compiling Uzbek language dictionaries²¹.

